

## ASQAR MAHKAM IJODIDA RUMIYONA QARASHLAR TALQINI

Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi  
*Samdu 1-kurs tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir va mohir tarjimon Asqar Mahkam ijodida Jaloliddin Rumiy qarashlarining aks ettirilishi va rumiyona tashbehlar tahlili bo‘ tasavvufiy qarashlarning aks ettirilishida she’riyatining ta’siri tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, ma’rifat, darvesh, qalb va vujud, shoh va gado, an’ana va yangilik.

**Аннотация:** В данной статье творчество поэта и искусного переводчика Аскара Махкама отражает взгляды Джалалуддина Руми и анализ аллюзий Руми, анализируется влияние его поэзии на отражение мистических взглядов.

**Ключевые слова:** мистика, просветительство, дервиши, душа и тело, царь и гадо, традиция и новаторство.

**Annotation:** In this article, the poet and skilled translator Askar Mahkam's work reflects the views of Jalaluddin Rumi and the analysis of Rumi allusions, the influence of his poetry on the reflection of mystical views is analyzed.

**Key words:** mysticism, enlightenment, dervish, soul and body, king and gado, tradition and innovation.

### KIRISH.

She’riyat shunday bir ummonki, unga g‘arq bo‘lmay turib asl mohiyatini his etish amrimahol. Har qanday she’r idrok va hissiyotning o‘zaro uyg‘unlashuvni hamda ilohiy bir ilhom natijasidir. Shoир she’r yozar ekan, she’rida o‘z shuuri chegaralarigacha bo‘lgan ma’nolarni ifodalashga qodir. Shunday shoirlar borki, bir necha misrada butun bir insoniyatni fikrlashga undovchi g‘oyalarni tarannum etadi. Satrlari xalq qalbi va tiliga ko‘chadi. Asl she’r shoirning ko‘zgudagi aksi kabi bo‘lmog‘i lozim, yo‘qsa maddohlik botqog‘i o‘z domiga tortib ketishi mumkin. Qalbidagi chin ma’rifat so‘zlariga ko‘chgan, adabiyot osmonidagi so‘nmas yulduzlardan biri Asqar Mahkam ham asl shoirlardan edi. Shoир she’riyati bilan oshno kitobxon uni Haqni tanigan va Haqni kuylagan ijodkor sifatida taniydi. She’rlarida ma’rifiy-tasavvufiy g‘oyalar, mumtoz an’analarga xos ma’nolar zamonaviy shakllar bilan uyg‘unlikda ifoda etiladi.

Asqar Mahkam she’riyatda o‘z yo‘li va uslubiga ega ijodkordir. Shoир qalbidagi jimlik-isyon juda kuchli, ifodalash uslubi esa bir qadar sokin va silliq, o‘ziga xosliklardan iborat. Shoир ijodini maqsadi Haqni anglash bo‘lgan bir yo‘lga qiyoslash mumkin. Bir adabiyotshunos olim aytganidek: “Kamolot yo‘lidagi ijodkorlarning izlanishlari ikki bosqichda kechadi. Birinchisi – so‘z hajri..., ...ikkinci bosqichi nur hijronidir”. [1;7] Asqar Mahkam ham bu bosqichlarda izlanishning teran va mashaqqatli yo’llarini bosib o’tdi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asqar Mahkam ijodida mumtoz adabiyotga oshnolik xususan fors adabiyoti durdonalari chuqur iz qoldirdi. U bir she'rida "Men yarmi fors yarmi turkiyman..." deya chin insoniylik sifatini namoyon qiladi. Hazrat Navoiy, mavlono Rumiy, hazrat Bedil, shayx Attor, Hofiz, shayx Sa'diy, shoh Mashrab ijodiga mehr qo'ydi. Uning kamtaringina adabiy merosi ushbu buyuk merosdan ozuqa olib sayqallandi. Mohir tarjimon sifatida ko'pgina fors adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga o'girdi. Ayniqsa Jaloliddin Rumiyning dunyoga mashhur "Ma'naviy masnaviy" asari tarjimasi o'zbek adabiyoti uchun olamshumul hodisa bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda Rumiy o'zbekcha kuylay boshladi. Shu asonda Rumiy g'oyalari oshnolik shoir qalbida Haqni anglash maqsadiga aylandi. Allohnning kalomi va suyukli payg'ambari sunnatlarini chuqur o'rganishga undadi. She'rlariga rumiyona qarashlar kirib keldi va obraz darajasiga ko'tarildi. Uning "Jaloliddin Rumiyning odami", "Mavlaviyona", "Vahdat kuyi", "Izlangiz" kabi she'rlarida Rumiy g'oyalari tarannum etilgan.

Shoirning "Mavlaviyona"she'rida tariqat yo'liga kirgan solikning Haqqa yetishish ishtiyoqida tortgan dard-sitamlarini mungli kuy hamohangligida ifodalab bergen. Mavlaviyona tariqatining o'ziga xos jihat raqs-u samo majlislarining o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu she'rni o'qigan she'rxon ham uning o'ziga xos musiqiylikka egaligini his qiladi. Shoир musiqiylikka erishishda takror san'atidan mohirona foydalangan.

Keldi Zulayholarim,  
Ohlarim, ohlarim  
Tinmadi ko'zyoshlarim,  
Ohlarim, ohlarim.[2:142]

Chin oh-nola tariqat ahliga xos bo'lib, u bu dunyo uchun qayg'urmeydi. solik darvesh u dunyo yoki jannat-u do'zax uchun emas, buyuk Haqning ishqida oh chekadi. Shoirning yana bir "Vahdat kuyi" she'rida Rumiy falsafasi aks etadi. Mavlono deya Rumiyga ishora qiladi. Qirq soni tasavvufda o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, murid hol-ahvolini kuzatgan murshid unga qirq kun chilla o'tirishni vazifa beradi. Chilla buyurilgan murid bir xonada o'tiradi, zikr va tafakkur bilan qirq kunni o'tkazadi. Chilla Alloh qudratini his qilish, uni tanish yo'lida bir vosita bo'lib, ko'pgina tariqatlarda uchraydi. Yana bir jihat muhimki, chilla o'tirgan murid Alloh tomonidan bir belgi-sir ayon bo'lishi ham mumkin. Quyidagi jumlada shoир o'shangan ishora qilib, "yulduzlar o'rnida hurlarni ko'rdim" deya so'z ochmoqda. Bundan keyin endi uning aqlida Allohni yodi, qalbida Allohnning nuri aks etgan muridni bu dunyo va u dunyo bilan ishi yo'q. Alloh ishqini bilan qalblar taskin topadi.

Mavlono keldilar mening qirqimga,  
Yulduzlar o'rnida hurlarni ko'rdim...  
Qayrilib boqmayin endi hech kimga  
Devona, afsona, hayrona bo'ldim...[2:143]

"Izlangiz" she'rida Rumiyga ishora qilib "Mavlaviy yo'lida" epigrafi keltirilgan. Shoир bani basharga qarata Haqni izlangiz deya murojaat qiladi. She'r mumtozona ruhda masnaviy shaklida bitilgan. Bu she'rda bitta mohiyat- Haqqa yetishishning yo'llari turlicha bo'lib, hamma o'z yo'lidan yurishi mumkinligi g'oyasi sezilib turadi.

Izlangiz, ey ahli oh,  
Qayda deb, ahli vafo.

Izlangiz, ey ahli dil,  
Qayda deb sohib ko'ngil.  
Izlangiz, ey ahli xos,  
qayda deb ahli niyoz.[2;146]

Ko'rinib turibdiki, she'rda haq yo'lida har kim o'z yo'lidan, o'zligidan bormoqligi g'oyasi aks etib turibdi. Shoir ahli oh, ahli dil, ahli xos, ahli roh, ahli xok, ahli g'am, ahli shum, ahli bad, ahli sharr, ahli jon, ahli xob, ahli xayr, ahli shom, ahli borlar, ahli Ishq, ahli joh, ahli yor va Oshnolarga murojaat qilib o'z fikrini ifodalab bermoqda.

### XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, shoir Asqar Mahkam she'riyatida sharq mumtoz ijodkorlar ijodiga oshnolik sezilib turadi. An'anaviy g'oyalar shoir ijodida zamonaviylik bilan uyg'unlashadi. Shoir she'riyatining bosh g'oyasi ikki qutb orasida yashayotgan insonlarni yaxshilikka chorlash, ma'naviy-ruhiy olamni tarbiyalash bo'lib, avlodlar tilidan bir o'gitnoma sifatida yangrab kelmoqda.

Asqar Mahkam har bir satrda kitobxonni ma'rifatga undaydi, Haqqqa da'vat etadi. Uning ijodi ma'rifiy-tasavvufiy g'oyalar asosiga qurilgan bir yo'l kabitdir. Bizningcha, bu yo'l hozirgi zamon she'riyatida o'ziga xos yo'nalishning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi.

### ADABIYOTLAR;

1. А. Маҳкам. Ҳақ.-Душанбе.: “Адиб”, 1998, 551–6.
2. А. Маҳкам. Ваҳдат куйи. . – Тошкент.: “Нурафшон бусинесс”, 2021, 366–6.
3. Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари.–Тошкент, 2010, 198–6.
4. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф.–Тошкент.: “Моварауннахр”, 2019.-447-6.
5. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур.–Тошкент.: “Хилол-Нашр”, 2021.- 296 6.